



**XALQ DEPUTATLARI DANG‘ARA TUMANI KENGASHINING  
QARORI**

2024-yil 23-aprel

VI-91-47-11-155-K/24

Dang‘ara tumani

**2024-yil 1-choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni  
moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar hisoboti to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi “Budjet ma’lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomning 81-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida xalq deputatlari Dang‘ara tuman Kengashi

**QAROR QILADI:**

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomning 81-bandi ijrosini asosan 2024-yil 1-chorakda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan tuman hokimligi Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i K.Latipovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Mazkur qaror bilan quyidagilar:

2024 yil 1-chorak yakuni bo‘yicha tashabbusli budjetlashtirish natijalari yuzasidan ma’lumot 1 ilovaga muvofiq;

2024 yil 1-chorak yakuni bo‘yicha Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi hisobidan loyihalarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida ma’lumot 2- ilovaga muvofiq.

**3.** Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (K.Latipov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (I.Usmonov), Mahallalar uyushmasi Dang‘ara tuman bo‘limi(J.Jaxonboev) hamda mahalla fuqarolari yig‘inlari bilan birgalikda 2024 yilda

o‘tkaziladigan “Tashabbusli budjetlashtirish” jarayoniga keng jamoatchilikni jalb etish bo‘yicha targ‘ibot tashviqot ishlarini olib borsinlar.

4. Tuman iqtisodiyot moliya bo‘limi (K.Latipov), tuman hokimligi axborot xizmati (U.Usmonov) Tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda “Ochiq budjet” axborot portali hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (U.Turdiqulov), ijrosini ta’minlash moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman hokimining birinchi o‘rinbosari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



TOJIXAKIMOV  
SHUXRATJON  
NURMUXAMMADOVICH

Xalq deputatlari Dang'ara tumani Kengashining  
2024-yil 23-apreldagi  
VI-91-47-11-155-K/24 -son qaroriga  
1-ilova

## Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan

### MA'LUMOT

Dang'ara  
tumani

2024-yil 1-aprel

ming.so'm

T/r	Tadbirning g xos raqami (ID)	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Tadbirni moliyalashtirish uchun ochilgan hisobvaraqa	Tadbirning moliyalashtirilishi (ming so'm)				Bajarilgan ishlar uchun to'lab berilgan mablag'lar	Qoldiq mablag'lar
				Tadbirning fuqaro tomonidan kiritilgan dastlabki qiymati	Tadbirni amalga oshirish qiymati*	Loyihani amalga oshirishdag i aniqlangan qiymat	Ajaratilgan mablag'		
1	-	-	-	-	-	-	-	-	-
2	-	-	-	-	-	-	-	-	-
3	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Jami:				-	-	-	-	-	-